“O’zkimyosanoat” AJ hamda Amerikaning “Trammo” kompaniyasi o’rtasida yuqori qo’shimcha qiymatga ega mahsulotlarni xarid qilish yuzasidan shartnoma imzolandi

// 19.09.2024
https://www.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/trammo

2024-yilning 19-sentabr kuni Turkiyaning Istanbul shahriga tashrif doirasida “O’zkimyosanoat” AJ hamda Amerikaning “Trammo” kompaniyasi o’rtasida yuqori qo’shimcha qiymatga ega mahsulotlar, xususan, “yashil” vodorod ishlab chiqarishni tashkil etish loyihasining birinchi bosqichida ishlab chiqariladigan “yashil” ammiak va karbamid mahsulotlarini xarid qilish yuzasidan off-take shartnomasi imzolandi.

Shuningdek, “Trammo” kompaniyasi bilan, Navoiy viloyatida “yashil” ammiak ishlab chiqarishni tashkil etish loyihasining keyingi bosqichida ishlab chiqarilishi rejalashtirilgan 200 ming tonna mahsulotni xarid qilish bo’yicha dastlabki kelishuvga erishildi.

“O‘zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati